



## O'zbekiston Respublikasida Hududiy Turizmning Rivojlanish Holati Tahlili

*Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li*  
*SamDU tadqiqotchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada turizm sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari, ya'ni kiruvchi tashrif buyuruvchilar, oilaviy mehmon uylari va YAIMda turizmning ulushi holati tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** turizm, turizm sohasi, elektron vizalar, tashrif buyuruvchi turistlar, oilaviy mehmon uylari, turizm sohasida band bo'lganlar.

Innovatsiyalar har bir soharivojlanishining muhim omili bo'lib, ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) samaradorligi va mehnat unumdorligini oshirish hamda iqtisodiy o'sishga erishishning har qanday namoyon bo'lishi innovatsiyalarni joriy etish (yangi texnika, yangi texnologiyalar, yangi bilim va ko'nikmalar bilan qurollangan xodimlarni boshqarish, ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish)ni tashkil etishning yangi usullari va boshqalar) orqali amalga oshiriladi.

Turizm sohasi barqaror rivojlanayotgan, yuqori o'sish sur'atlarini namoyish etuvchi tarmoqlardan biri bo'lib, turli darajadagi uzluksiz innovatsiyalarni zarurat etadi. Turizm sohasida innovatsiyalar texnologiyalar bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlarga ega, chunki bu sohada turistik mahsulotlar ishlab chiqariladigan texnologiyalar va ushbu mahsulotlarga asoslangan xizmatlar o'rtasidagi holat bilan belgilanadi.

Mamlakatimizga tashrif buyuruvchilar uchun ularning mobilligini oshirishning muhim omili bo'lib, viza tizimini soddalashtirish va turistlarni bo'lish tartiblarini joriy etish hisoblanadi. 2019-yildan boshlab 86 ta mamlakat uchun respublikamizga kirishda vizasiz tartib joriy qilindi. Shu bilan birga, 57 mamlakatning elektron viza (E-Visa)ni rasmiylashtirish imkoniyatining mavjudligi 2020-yilda oltmish ming elektron vizalarni rasmiylashtirish uchun sharoit yaratdi. Turist sifatida mamlakatimizga tashrif buyuruvchilarning bunday sur'atda o'sishining asosiy sababi xorijiy turistlarning kelishlari uchun huquqiy va tashkiliy-iqtisodiy jihatdan imtiyozlar va yengilliklarning berilishidir.

Mamlakatimiz turizm sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlariga e'tibor bersak, kiruvchi tashrif buyuruvchilar soni 2021-yilda 6,2 mln. kishidan iborat bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2017-yilga nisbatan 62,0 %ni tashkil etgan. Keyingi yillarda turizm strategik ahamiyatga ega soha bo'lganligi sababli 2021-yilda oilaviy mehmon uylari soni ham 897 tani tashkil etdi. Respublikamiz YAIMda turizmning ulushi 2017-2021-yillarda 0,1 bandga qisqargan, buning asosiy sababi 2020-yilda butun dunyoda bo'lib o'tgan pandemiya tufayli turizm sohasidagi inqirozli holat hisoblanadi. Respublikamiz turizm sohasida band bo'lganlar soni tahlil qilinayotgan davrlar oralig'ida 14,9 %ga oshgan holda, ichki turizm ham bunga mos ravishda 0,8 %ga o'sgan (1-jadval).



**1-jadval O'zbekiston Respublikasida turizm sohasi rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari dinamikasi**

| №  | Ko'rsatkichlar                              | Yillar |        |        |        |        | 2017-2021 y.y.da o'zgarish % |
|----|---------------------------------------------|--------|--------|--------|--------|--------|------------------------------|
|    |                                             | 2017   | 2018   | 2019   | 2020   | 2021   |                              |
| 1. | Tashrif buyuruvchilar soni jami, mln. kishi | 10,0   | 16,2   | 17,7   | 4,6    | 6,2    | 62,0                         |
| 2. | Kiruvchi turizm, ming kishi                 | 2690,1 | 5346,2 | 6748,5 | 1504,1 | 1881,3 | 69,9                         |
| 3. | Joylashtirish vositalari, birlik            | 816    | 916    | 1051   | 1156   | 1085   | 133,0                        |
| 4. | Oilaviy mehmon uylari, birlik               | -      | -      | 106    | 886    | 897    | -                            |
| 5. | YAIMda turizmning ulushi, %                 | 2,5    | 2,5    | 2,6    | 2,3    | 2,4    | -                            |
| 6. | Turizm sohasida band bo'lganlar, ming kishi | 187,6  | 201,0  | 260,1  | 201,3  | 215,6  | 114,9                        |
| 7. | Ichki turizm, ming kishi                    | 2145,9 | 2255,5 | 2480,8 | 1069,2 | 2162,7 | 100,8                        |

Turizm mamlakatlar iqtisodiyotida multiplikativ samarani yuzaga keltiruvchi, jadal sur'atlarda o'sib boruvchi, yuqori daromadli va barqaror soha hisoblanadi. Ushbu soha iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'rifiy aloqalarni kengaytirishda muhim rol o'ynaydi.

**2-jadval O'zbekiston Respublikasida turizm sohasining asosiy ko'rsatkichlari**

| №        | Ko'rsatkichlar                                                   | Yillar         |                |                |               |               | 2017-2021 y.y.da o'zgarish % |
|----------|------------------------------------------------------------------|----------------|----------------|----------------|---------------|---------------|------------------------------|
|          |                                                                  | 2017           | 2018           | 2019           | 2020          | 2021          |                              |
| <b>1</b> | <b>Tashrif buyuruvchilar soni - jami, ming kishi</b>             | <b>10018,4</b> | <b>16196,6</b> | <b>17667,2</b> | <b>4574,8</b> | <b>6238,8</b> | <b>62,3</b>                  |
|          | ulardan xizmat ko'rsatilganlar:                                  |                |                |                |               |               |                              |
|          | turistik firma va tashkilotlar tomonidan                         | 669,9          | 713,2          | 942,0          | 212,3         | 577,8         | 86,3                         |
|          | mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari tomonidan | 1714,2         | 2125,9         | 2193,4         | 702,8         | 1216,9        | 71,0                         |
|          | Sanatoriya-kurort muassasalari tomonidan                         | 355,7          | 426,6          | 528,3          | 219,9         | 381,7         | 107,3                        |
|          | dam olish tashkilotlari va turistik bazalar tomonidan            | 292,1          | 237,4          | 398,7          | 126,6         | 404,2         | 138,4                        |
| <b>2</b> | <b>Kiruvchi turizm</b>                                           | <b>2690,1</b>  | <b>5346,2</b>  | <b>6748,5</b>  | <b>1504,1</b> | <b>1881,3</b> | <b>69,9</b>                  |
|          | ulardan xizmat ko'rsatilganlar:                                  |                |                |                |               |               |                              |
|          | turistik firma va tashkilotlar tomonidan                         | 167,4          | 224,8          | 348,7          | 21,7          | 44,4          | 26,5                         |
|          | mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari           | 615,9          | 932,6          | 1094,2         | 142,5         | 331,3         | 53,8                         |




|          |                                                                  |               |               |               |               |               |              |
|----------|------------------------------------------------------------------|---------------|---------------|---------------|---------------|---------------|--------------|
|          | tomonidan                                                        |               |               |               |               |               |              |
|          | Sanatoriya-kurort muassasalari tomonidan                         | 8,5           | 17,5          | 24,5          | 5,8           | 12,2          | 143,5        |
|          | dam olish tashkilotlari va turistik bazalar tomonidan            | 14,6          | 25,8          | 53,3          | 8,5           | 18,8          | 128,8        |
| <b>3</b> | <b>Chiquvchi turizm</b>                                          | <b>5182,5</b> | <b>8594,8</b> | <b>8437,8</b> | <b>2001,5</b> | <b>2194,8</b> | <b>42,4</b>  |
|          | ulardan xizmat ko'rsatilganlar:                                  |               |               |               |               |               |              |
|          | turistik firma va tashkilotlar tomonidan                         | 36,0          | 32,0          | 36,0          | 6,4           | 16,2          | 45,0         |
| <b>4</b> | <b>Ichki turizm</b>                                              | <b>2145,9</b> | <b>2255,5</b> | <b>2480,8</b> | <b>1069,2</b> | <b>2162,7</b> | <b>100,8</b> |
|          | ulardan xizmat ko'rsatilganlar:                                  |               |               |               |               |               |              |
|          | turistik firma va tashkilotlar tomonidan                         | 422,9         | 441,5         | 532,5         | 176,6         | 522,0         | 123,4        |
|          | mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari tomonidan | 1098,3        | 1193,3        | 1099,2        | 560,3         | 885,7         | 80,6         |
|          | Sanatoriya-kurort muassasalari tomonidan                         | 347,2         | 409,1         | 503,8         | 214,1         | 369,6         | 106,5        |
|          | dam olish tashkilotlari va turistik bazalar tomonidan            | 277,5         | 211,5         | 345,3         | 118,1         | 385,4         | 138,9        |

2-jadval O'zbekiston Respublikasida turizm sohasining 2017-2021-yillardagi asosiy ko'rsatkichlari keltirilgan bo'lib, 2021-yilda turist sifatida tashrif buyuruvchilar soni (6238,8 ming kishi) nisbatan oshgan bo'lsada, pandemiyaning salbiy oqibatlari sababli bu ko'rsatkich 2017-yilga nisbatan 62,3%ga ta'minlangan. 2017-2021-yillar davomida respublika-mizga kiruvchi turistlar soni 808,8 ming kishiga yoki 69,9%ga, chiquvchi turizm 42,4%gacha qisqargan bo'lsa, ichki turizmni rivojlantirish chora-tadbirlar natijasida bu ko'rsatkich 100,8%ni tashkil qilgan.

Respublikamizda turizm sohasini barqaror rivojlanishi, jumladan, tarixiy-madaniy merosga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan infratuzilma yaratilishi, xalqaro aloqalarni mustahkamlanishi mamlakatimizni dunyodagi eng ko'p tashrif bo'ladigan davlatlardan biriga aylantirdi.

Mamlakatimizda turistik maqsadlarda kelgan chet el fuqarolari soni 2018-yilda 5346,2 ming kishi, 2022-yilda esa 5232,8 ming kishini tashkil qilgan. 2022-yilda O'zbekiston Respublikasiga kelgan xorijiy fuqarolar soni 2021-yilga nisbatan 2,8 barobarga oshgan. 2022-yil davomida chet eldan

kelganlarning eng katta qismi uchinchi chorakka to'g'ri kelgan – 1 710,9 ming kishi, bu ularning umumiy sonidan 32,7 % ini tashkil qilgan (1-rasm).



**1-rasm. O‘zbekiston Respublikasida turistik maqsadlarda kelgan chet el fuqarolari, ming kishi**

Hozirgi vaqtda turizm jahon iqtisodiyotida tez sur’atlarda o‘sayotgan va xizmatlar eksporti sohasiga aylanib bormoqa. Jahon turizmi buyicha Manila deklaratsiyasida “Turizm faoliyat sifatida mamlakatlarning ijtimoiy, madaniy, ta’lim va iqtisodiy sohalariga va ularning xalqaro aloqalariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’siri ko‘rsatgan holda xalqlar hayotida muhim ahamiyat kasb etadi” deya e’tirof etilgan. Ushbu holat turizmning milliy davlatlarning ijtimoiy hayotida alohida o‘ringa egaligi va chuqur kirib borayotganligi hamda istiqbolli soha sifatida yuqori o‘ringa ega bo‘layotganligini turizm va rekreatsiyaga xos uning turli xil funksiyalarini tadqiq qilish asosida tushunish mumkin. Turizm sohasi rivojlanishining iqtisodiy funksiyasi turistlarning turistik xizmatlarga bo‘lgan talab va ehtiyojlari orqali shakllanadi. Doimiy yashash joyidan uzoqda bo‘lgan turistlarning ehtiyojlari uch guruhga, ya’ni asosiy, o‘ziga xos va qo‘shimcha ehtiyojlarga ajratiladi.

Mamlakatimizda turizmni samarali rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan choralarning muhim ijobiy natijalari quyidagilarda namoyon bo‘ladi: turizm sohasini rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqish, Markaziy Osiyo davlatlari va uzoq xorijiy mamlakatlar bilan aloqalarni mustahkamlash, turizm infratuzilmasini rivojlantirish, turizm sohasida xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash kabi yo‘nalishlar.

Shuningdek, turizmdagi innovatsiyalar ushbu sohada ko‘rsatiladigan xizmatlar hajmining mehnat xarajatlariga chiziqli bog‘liqligi hamda turistik korxona ichidagi innovatsion o‘zgarishlar uchun cheklangan faoliyat sohasi mavjudligi bilan tavsiflanadi, bu esa boshqaruv usullarini autsorsing va tashqi omillarga katta bog‘liqlikda amalga oshiradi. Bunda mavjud tabiiy sharoitlar, diqqatga sazovor joylar, hududlar va muayyan yo‘nalishlardagi madaniy salohiyatdan maksimal darajada foydalanishni talab qiladi hamda o‘z navbatida dinamik o‘zgarishlarga duchor bo‘ladi. Turizm korxonalarida innovatsion o‘zgarishlarning omillari quyidagilardan iborat:

- iste’molchilarning o‘zgaruvchan ehtiyojlari;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish;
- raqobatning kuchayishi (korxonalar, hududlar, shtatlar darajasida);
- yangi bozorlarni paydo bo‘lishi;
- sanoatdagi inqirozlar va tanazzullar;
- resurslarning yetishmasligi.



Turizm korxonalarida innovatsion o'zgarishlarga to'sqinlik qiluvchi omillarga quyidagilar hisoblanadi:

- umuman iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarida hamda korxonalarda innovatsion madaniyat rivojlanishining past darajasi;
- ilm-fan va turizm mahsuloti ishlab chiqarish o'rtasida yaqin aloqaning mavjud emasligi;
- turizm sohasida innovatsion tashabbuslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash darajasining pastligi;
- korxonalar o'z faoliyatida jiddiy moliyalashtirishni talab qiladigan tub o'zgarishlardan voz kechishi;
- mablag'lar va loyihalarning uzoq muddati davomida qaytarilish;
- innovatsiyalarni rivojlantirishni tartibga soluvchi yagona qonunchilik bazasining takomillashmaganligi;
- iste'mol bozorining rivojlanishdarajasidagi salbiy o'zgarishlar.

Hozirgi vaqtda turizm ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning real katalizatori hisoblanadi. Biroq, mamlakatimizda mavjud turistik salohiyatni oshirishga yetarlicha baho bermaslik mazkur sohada amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini pasayishiga olib kelmoqda. Sayyohlik agentliklarini, shuningdek kelajakda xizmatlarni diversifikatsiyalash va rag'batlantirishga ta'sir ko'rsatadigan texnik innovatsiyalardan to'liq foyda olish, xarajatlar samaradorligini oshirish, mehnatni va iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirishga yordam beradigan muammolarni hal qilishning zamonaviy tahliliy usullari va yondashuvlaridan yetarli darajada foydalanish lozim.

Bugungi kunda iqtisodiyotning yuqori rentabelli turistik salohiyatidan respublikada yetarlicha foydalanish maqsadida sohani rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish uchun ulkan imkoniyatlarga ega. Turistik xizmatlar bozorida yangi mahsulotning paydo bo'lishi boshqa, yanada ilg'or loyihalarni ishlab chiqish, ularni moliyalashtirish imkoniyatini yaratishga xizmat qiladi. Turizmdagi innovatsiyalar katta moddiy, moliyaviy xarajatlarni talab qiladi. Shuning uchun bunda davlat moliyaviy ko'magi muhim hisoblanadi.

Mavjud muammolarni samarali hal etish turizm rivojlanishining yangi modelini yaratish imkonini beradi, bu esa turizm sohasi infratuzilmasini rivojlantirish, innovatsion texnika va texnologiyalarni joriy etish, turistik mahsulotning samarali reklamasini amalga oshirish, turistlarning transportdan foydalanish imkoniyatini ta'minlash, turistlarga sifatli xizmat ko'rsatishga qodir yuqori malakali kadrlarni yaratishni nazarda tutadi.

Eng avvalo, turizm sohasini rivojlantirishga fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari va ilg'or tajribalarni, innovatsiyalarni joriy etish orqali turizm, turistik xizmat ko'rsatishning yangi konsepsiyalarini yaratish, ularni yangi xizmat ko'rsatish formatlarida amalga oshirish mumkin bo'ladi. Turizm sohasini rivojlantirish va tartibga solishda yangicha yondashuvlarni shakllantirish va innovatsiyalarni joriy etish yetarli darajada moddiy-texnika bazasiga ega bo'lgan adekvat turizm industriyasini yaratadi.

Bizning fikrimizcha, turistik korxona va tashkilotlarning innovatsion faoliyati rivojlanishiga quyidagi omillar salbiy ta'sir ko'rsatadi:

- iqtisodiy va texnologik (moliyalashtirish uchun yetarli mablag'ning yo'qligi, moddiy-texnika bazasining zaifligi, eskirgan texnologiya);
- siyosiy, huquqiy (siyosiy beqarorlik, kriminogen vaziyat, qonun bilan belgilangan cheklolar);
- tashkiliy-boshqaruv (haddan tashqari markazlashuv, qisqa muddatda o'zini oqlashga e'tibor qaratish, innovatsion jarayonlar ishtirokchilari manfaatlarini muvofiqlashtirishning murakkabligi, vertikal axborot oqimlarining ustunligi);



- ijtimoiy-psixologik va madaniy (innovatsiyalarga qarshilik, tashqaridan kelgan barcha yangilik, noaniqlikdan qoʻrqish).

Bu omillarning barchasi tashqi va ichki muhitning holatiga bogʻliq boʻlib, ularning tahlili turizm korxonasida innovatsion faoliyatni tashkil qilishda doimo diqqat markazida boʻlishi zarur.

Doimiy takomillashtirishga intilib, kompaniya koʻpincha yuqori xarajatlar va jiddiy risklarni oʻz ichiga olgan boʻlsa ham, aniq raqobatdosh ustunlikni taʼminlaydigan davriy yangiliklarni amalga oshiradi. Bu yerda bozor tadqiqotlari koʻp yordam bermaydi. Davriy yoki uzluksiz innovatsiyalar har doim ham ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirishga yordam bermaydi, chunki ular uning alohida bosqichlariga taalluqlidir. Bundan tashqari, ular nafaqat qisqa muddatda, balki uzoq muddatda ham ishning amaliy natijalariga salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin [1].

Tashqi muhit holatini tahlil qilishda innovatsiyalarni joriy etishga bevosita taʼsir etuvchi omillarga alohida eʼtibor qaratish lozim. Bu:

- umumiy iqtisodiy vaziyat, uning taʼsirida isteʼmol talabi va aholining toʻlov qobiliyati shakllanadi;
- ijro etuvchi hokimiyat organlarining turizmni rivojlantirishni qoʻllab-quvvatlash boʻyicha harakatlari, turizmga oid ham davlat, ham hududiy ahamiyatga ega qonunchilik va meʼyoriy-huquqiy hujjatlar talablari;
- raqobat muhiti va koʻlami;
- aloqa va axborotlashtirish tarmoqlarining holati (internetdan, boshqa muqobil aloqa vositalaridan foydalanish imkoniyati);
- sayohatlarni tashkil etishda yangi texnologiyalardan foydalanish imkoniyati (turistik bozor subyektlarini global bronlash tizimlari, yangi texnologiyalardan foydalanadigan kompaniyalar soni, ayniqsa, hududlarda);
- hududiy bozorlarda kompyuter texnologiyalari yangiliklari va yangi takliflarni ilgari surish uchun zarur boʻlgan vaqt davri.

Turizm sohasida tadbirkorlikning rivojlanishida innovatsion jarayonlarga toʻsqinlik qiluvchi ekologik omillardan tashqari, koʻp narsa ichki muhitga bogʻliq. Bu: turistik korxona siyosati va strategiyasi; jamoada tashabbuskor ishchi muhitining mavjudligi; boshqaruv tomonidan innovatsion gʻoyalarni soʻzsiz qoʻllab-quvvatlash; eksperimentlarni turistik korxonaning barcha darajalari va barcha boʻlimlarida har tomonlama targʻib qilish; motivatsion tizimlardan, shu jumladan ijodiy va innovatsion faoliyatni ragʻbatlantirishning turli shakllaridan foydalanish; innovatsiyalarni joriy etish boʻyicha ixtisoslashtirilgan boʻlimning mavjudligi; moliyaviy imkoniyatlarning talab darajasi; rivojlangan aloqa va axborot tizimlari; innovatsiyalarni amalga oshirishga tashkiliy-texnik tayyorgarlik.

Turizm korxonasida innovatsiyalarni joriy etish samaradorligini tahlil qilish uchun innovatsion loyihalar samaradorligini baholashning umumiy usullari ham, turizm biznesining oʻziga xos mezonlari ham qoʻllaniladi. Innovatsion faoliyatning rivojlanishi iqtisodiy samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati**

1. Mixaylichenko A.I. Upravleniye innovatsionnym razvitiyem tu—ristskix predpriyatiy. — Rukopis. Kiyev, 2014. — 49 s. <https://articlekz.com/article/9122>
2. Oʻzbekiston Respublikasi Davlat statistika qoʻmitasi maʼlumotlari asosida tuzilgan